

LINGVOMADANIY MAKONDA OQ RANGNING MENTAL
XUSUSIYATLARI (O‘ZBEK XALQ ERTAKLARI MISOLIDA)

Hamid Xo‘shmurodovich Bozorov.

O‘qituvchi. Termiz davlat universiteti.

Termiz, O‘zbekiston.

hamidbozorov65@gmail.com

Annotatsiya: *Dunyoning lisoniy manzarasida jahon xalqlari milliy-madaniyatida oq rang bilan bog‘liq madaniy va ramziy ifodalar tahlilga tortilgan. Jumladan, o‘zbek xalqining lisoniy manzarasida oq rangning o‘ziga xos ramziy ifodalari o‘zbek xalq ertaklari tilida mavjud misollar orqali tahlilga tortilgan.*

Tayanch so‘zlar: *lingvomadaniyat, ramz, milliy madaniyat, mental xususiyat, oq fotiha, oq yo‘l, oq fil.*

Olamning lisoniy manzarasidan o‘rin olgan asosiy ranglardan biri **oq rang** bo‘lib, jahon xalqlari mentalitetida turli talqin qilinishi assotsiatsiyalarda o‘z aksini topadi. Assotsiatsiyalar esa har xil lisoniy ong egalarining mentalitetiga bog‘liq holda turlicha akslanadi. I.Xodjalepesova oq rangning xalqlar madaniyatidagi asossotsiatsiyalariga to‘xtalar ekan, quyidagilarni keltirib o‘tadi: “Oq rang – tinchlik va osoyishtalik ramzi. V.Kandinskiyning fikricha, oq rang sukunat, to‘xtam, vaqtinchalik tugash ramziy ma’nolariga ega. Oq rangning kognitiv mazmuni yorqinlik, yaxshi, ezguli narsa bilan bog‘liq. Oq rang – kuch va sog‘lik manbai, qalb va niyatlarning pokligi, qayg‘u va baxtsizlikning yo‘qligi ramzidir... Umuman olganda, oq rang yaxshi boshlanish bilan bog‘liq [2,16].

Jahon mamlakatlari lingvomadaniyatiga nazar tashlar ekanmiz, oq rang bilan bog‘liq turli tushunchalar mavjudligini guvohi bo‘lamiz. Xususan, o‘zbek xalqida biror xayrli ish boshlanishidan oldin **“oq fotiha”** degan tushuncha bo‘lib, o‘zbek xalq ertaklarida ham o‘z ifodasini topadi.

Ota o‘g‘illariga oq fotiha beribdi. Uch og‘a-ini yo‘lga tushib, yerning ustidan, osmonning ostidan uzoq yurishibdi (Uch og‘ayni botirlar. “Uch og‘ayni botirlar”, 282-b.).

O‘zbek xalqi mentalitetida, ba’zi holatlarda, keksalikni ifodalash uchun uchun **“soch-soqoliga oq oraladi”, “oq tushgan”** birikmalaridan foydalanadi.

Ertasi tushga yaqin yigit yana kelib poylabdi, oq soqolli chol chiqib tahorat qilib bo‘lgandan keyin yigit uning oldiga borib salom beribdi, ko‘rishibdi va tandirning ichiga turishi va kampiri bilan bir chopon kiyib yurishining sababini so‘rabdi (O‘zbek xalq ertaklari. “Uchar gilam”, 88-b.).

"Oq yo'l" xayrixohlik ifodalovchi birikma sifatida milliy-madaniy o'ziga xos xususiyat kasb etib, qadimdan o'zbek mental xarakterida mavjudligi ertaklar tilida ham mavjudligi bilan izohlashimiz mumkin.

Qarg'aga oq yo'l tilab, hammalari uni kuzatishibdi (Oyjamol. "Ovchi, Ko'kcha va Dono", 132-b.).

O'zbek xaliqining lisoniy onida "oq yo'l" lingvokultremasi o'ziga xos ijobiy mazmun ifodalasa, ushbu ifoda xitoy va koreyslar uchun o'zgacha salbiy mazmun kasb etadi. Ularning lisoniy madaniyatida narigi dunyo, oq rangda tasvirlanadi. Hind lingvomadaniyatida esa oq rang motam ramzini ifodalaydi. Propp esa rus xalq og'zaki ijodida oq rangni "o'zining jismoniyligini yo'qotgan mavjudodlarning rangi, shuning uchun arvohtar oq ko'rinadi" deb izohlaydi [7,162]. Ingliz tilida oq rang, asosan, odam tanasi rangini, hind xalqining ma'lum hududida kasallik ramzi sifatida qaraladi. Sh.Usmonova ba'zi xalqlar lingvomadaniyatida oq rangning qo'rqqoqlik ramzi [7,162] ekanligini qayd etib o'tadi. Rus tilshunosi V.Shaklein oq rangning ramziy belgilari xususiyatlari haqida to'xtalar ekan Y.D.Apresyanning dunyo xalqlari madaniyatida ranglar bilan bog'liq assotsiatsiyalarning farqlari va xalq vakillarining riaksiyalarini quyidagi misollar orqali izohlaydi: Oq rang AQshda poklik, Fransiyada – betaraflik, Misrda – quvonch, Hindiston va Xitoyda - o'lim va poklik, Yaponiyada – o'lim ramzlarini ifodalashini qayd etib o'tadi [3,76]. Skandinaviyada oq rang o'lim ma'budasi Helning oq yuzini ifodasi. O'zbek xalqi milliy-madaniy olamida oq rang *"poklik, yorug'lik, baxt"* ramzi sifatida o'rin olgan. Navoiy ham ushbu rangni *"poklik va halollik"* [5, 174] ramzi sifatida qayd etishi turkiy xalqlar tarixida, jumladan, o'zbek milliy-madaniyatida ijobiy ma'no kasb etishini ko'rsatib turibdi.

Ko'p xalqlarda "oq fil" degan ibora mavjud bo'lib, "katta, ta'sirli, ammo foydasiz narsaga xarajat" ma'nosini ifodalaydi. Ushbu iboraning tarixiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Siam shohi norozi saroy a'yonidan qutulish maqsadida unga katta oq fil hadya qiladi. Filni boqish xarajatlari tezda saroyni yemira boradi, ammo qirolning sovg'asini qaytarish yoki yo'q qilish mumkin emas edi. Mana shu voqea natijasida "oq fil" iborasi vujudga kelgan. Ba'zi xalqlarning lingvomadaniyatida "oq jigar" degan ibora ham mavjud bo'lib (jigarida qoni yo'q) qo'rqqoq ma'nosini ifodalagan¹. Sharq xalqlari mentalitetida ham oq komponentli *"oq ko'ngil"* va *"oq ko'ngillik"* kabi frazemalar ko'p qo'llanadi. Ushbu frazemalarning asoslarida o'zaro bir xil leksemalardan foydalanilgan bo'lsa-da, kontekstda ma'no nozikliklarini keltirib chiqarishi ko'zga

¹ <https://symbolist.ru/color/white.html>

tashlanadi. Buni o'zbek xalq ertaklari tilida qo'llangan quyidagi misollarda ko'rib chiqamiz.

Yigitlar ham o'ylanib, oq ko'ngillik bilan rozi bo'lishibdi va Malikayi Gulizor bilan singil tutinib, olma olib kelib yedirgan yigitga to'y qilib berishibdi (Uch og'ayni botirlar. "Malikayi Gulizor", 77-b.).

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, o'zbek xalq ertaklari tilida oq rang bilan bog'liq ramziy ifodalar ushbu rangning ijobiy sema: *poklik, yorug'likning* ifodalovchisi sifatida namoyon bo'lganligi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Пропп В.Я. Исторические корни волшебной сказки. – Ленинград: Издательство ленинградского университета, 1986. 370 с.
2. Ходжалепесова И. Антропоцентрик хусусиятларни тавсифлашда ранг символизми. Фил.фан.бўйича фалс.док. (PhD)дисс. автореферати. – Самарқанд, 2022. 60 б.
3. Шаклеин В.М. Лингвокультуроология: традиции и инновации. – М.: Флинта, 2012. 301 с.
5. Ҳасанов С. Навоийнинг етти тухфаси. – Т.: Ф.Фулум. 1991. 192 б.
6. Umurkulov Z.B. LEXICAL MEANS EXPRESSING COMPARISON. // Theoretical & Applied Science. – 2019. №.11. – С. 237-240.
7. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. Darslik. – Toshkent, 2019. 248 б.